



2021-yil yanvar-dekabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida jami **26 409,3** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **117,7 %** ni tashkil etdi.



2021-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.

Ma’lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 9,0 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **108,8%** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,3%**), fuqarolik obyektlarini qurish **119,5%** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin **111,9%** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,7%**) o'sishidir.




**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari
soni (birlikda)**

	holatiga ko‘ra:		O‘tgan yilga nisbatan, % da
	01.01.2021-yil	01.01.2022-yil	
Toshkent sh.	8237	9129	110,2
<i>tumanlar</i>			
Bektemir	178	202	113,5
Mirzo Ulug‘bek	1036	1155	111,5
Mirobod	751	851	113,3
Olmazor	683	739	108,2
Sergeli	571	491	86,0
Uchtepa	609	661	108,5
Chilonzor	1066	1155	108,3
Shayxontohur	662	730	110,3
Yunusobod	1073	1154	107,5
Yakkasaroy	851	922	108,3
Yangihayot		206	
Yashnobod	757	863	114,0



**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da
01.01.2022-yil holatiga ko'ra**



Ma'lumot uchun: shaharda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Mirzo Ulug'bek tuman (12,7%), Chilonzor tuman (12,7%) va Yunusobod tuman (12,5%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **10 720,8** mld. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020-yilga nisbatan **154,8%** ga ko‘p bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020-yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **9,6%** punktga ko`payib, **40,6** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da



Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarinining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Uchtepa tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 78,3%ni yoki 2020-yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 223,1%), Yunusobod tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 51,8% i yoki o’tgan yilning mos davriga nisbatan 210,2%), va Shayhontohur tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 49,9% i yoki o’tgan yilning mos davriga nisbatan 197,3%) ga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-dekabr
- 2021- yil yanvar dekabr

Kichik korxona va


mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **50,0%** i to‘g‘ri kelib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **9,3%** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **99,5%** ni tashkil etgan holda **13 193,4** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **9,4%** ni tashkil etdi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **0,3** punktga kamaygan va **2 495,1** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020-yilga nisbatan **110,8%** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi


ulushi % da, mlrd. so‘m



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **1009,0** mlrd. so‘m yoki 2020-yilga nisbatan **111,5%** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **25400,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati **118,0%** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **3,8%** va **96,2%** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk


**2021- yil
Yanvar-Dekabr**

Toshkent shahrida qurilish ishlari




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021-yil yanvar-dekabr oylarida




68,1%

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlaringning **68,1 %** i yoki **17 997,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.




71,0%

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **7 617,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **71,0 %** ni tashkil etdi.



66,6%

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **8 781,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **66,6 %** ni tashkil etdi.



64,1%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1 598,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **64,1 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021-yil yanvar-dekabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Toshkent sh.	26409,3	117,7	100,0
tumanlar			
Bektemir	964,6	135,5	3,7
Mirzo Ulug‘bek	3 002,2	101,8	11,4
Mirobod	2 531,3	100,4	9,6
Olmazor	2 060,7	109,1	7,8
Sergeli	1 247,0	132,4	4,7
Uchtepa	3 699,4	175,8	14
Chilonzor	1 983,4	100,5	7,5
Shayxontohur	1 991,3	149,6	7,5
Yunusobod	4 057,5	108,6	15,4
Yakkasaroy	1 912,0	100,6	7,2
Yangihayot	831,0	316,4	3,1
Yashnobod	2 129,0	101,0	8,1

*Tumanlar bo‘yicha taqsimlangan hajjni qo’shgan holda



Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari, % da

2020-yil yanvar-dekabr

17,1




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

20,2



Fuqarolik obyektlarini
qurilish ishlari

62,7



Bino va inshootlarni
qurilish ishlari

18,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,6



Fuqarolik obyektlarini
qurilish ishlari

57,6



Bino va inshootlarni
qurilish ishlari

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan hamda yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **29,9%** ni tashkil etib, 2020-yil ko'rsatkichga nisbatan **3,7%** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,5%** punktga ko'payib, **58,1%** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,2%** punktga kamayib, **12,0%** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **65,4%** ni tashkil etdi va 2020-yilga nisbatan **26,5%** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **34,6%** (**25,3%** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020-yilga nisbatan **4,5%** punktga ko`paydi va **24,6%** ni tashkil etdi. Qolgan **75,4%** kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020-yilga nisbatan 4,5% punktga kamaydi.





Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Uchtepa (tumandagi qurilish hajmining **78,3** % ni tashkil etdi) va Shayxontohur (mos ravishda **49,9**%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



**Tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021-yil yanvar-dekabr oylarida**

Eng yuqori hajm

(mlrd. soʻm)

Yunusobod
4 057,5

1

2

Mirzo Ulug`bek
3 002,2

Uchtepa
3 699,4

3



Kichik hajm

(mlrd. soʻm)

Yangi xayot
831,0

1

2

Bektemir
964,6

Sirg`ali
1 247,0

3





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas’ul:

D.Rustamov

Aloqa telefoni:

(71) 203-88-19